

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2023

5/2-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

5/2-сан 2023

октябрь

Шолкемлестириүшилдер:

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендіриү Министрлигі,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

**Редактор:
А. Тилегенов**

Редколлегия ағзалары:

Максет АЙЫМБЕТОВ	Уролбай МИРСАНОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Нуржан МАТЧАНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Фуркат РАЖАБОВ
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Тұлқин АЛЛАЁРОВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Умида БАҲАДИРОВА	Феруза САПАЕВА
Фарҳад БАБАШЕВ	Қаҳхор ТУРСУНОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Нурзода ТОШЕВА
Шахло БОТИРОВА	Тажибай УТЕБАЕВ
Маманазар ДЖУМАЕВ	Амангелди КАМАЛОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Ризамат ШОДИЕВ
Алишер ЖУМАНОВ	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Холбой ИБРАГИМОВ	Дүстназар ХИММАТАЛИЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
Асқарбай НИЯЗОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
Сабит НУРЖАНОВ	



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХӘМ ӘДЕБИЯТ

Мадалиев Я.Х. Абай ижодий мөттөсінде адабий қарашлар	7
Dosanov N. O'zbek tilida izohlovchilarning leksik-semantik xususiyatlari	17
Musurmankulova M.N. Metaphorical rethinking architectural concepts	20
Berdiev B.Ch. Healthy lifestyle in the educational system in connection with belt wrestling	27
Isaqova E.D. The analysis of appearance of feelings in the english and uzbek languages	31

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Palwaniyazov M. Xaliq pedagogikasiniá ájayip tábiya qurali	40
Radzayeva Z.T., Mirzayeva G.Z. Integratsiyalashgan ta'limgardarlar tarbiyalashdagi afzalliliklari	45
Тұрақұлов Б.Н. Таълим мұхитида интеллект ва компетентлилік түшүнчалары	49
Abdujabbarova M. L., Davlatov O.G'. Talabalarning axborot xavfsizligini ta'minlashda kompetensiya va kompetentlikning ahamiyati	56
Азизова С.А. Олий таълим мұассасалари талабаларини медиа компетентлигини ривожлантиришда инновацион технологияларни ўрны	61
Ismanova M. A. Talabaldarda kasbiy-kreativ ko'nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati	66
Tashpulatova D.M. Maktab ta'limdi tabiiy fanlarni integratsion o'qitish metodikasi	70
Kuchkinov A.Yu. Boshlang'ich ta'lim yo'naliishi talabalarida raqamli ta'lim orqali ekopedagogik kompetentligini rivojlanishida eko-steam yondashuvning imkoniyatlari	74
Aktamov F.S. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlantrish omillari	80
Quzmanova G.B. O'quvchilarning ijtimoiy kompetentligini ijtimoiy tarmoqlar vositasida rivojlantrishda maktab umumiy fanlarining o'rni	88
Tilavova S.B. Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar orqali bo'lajak o'qituvchilarining ekologik kompetentligimi steam yondashuv asosida takomillashtirish yo'llari	92
Umarova Z.A. Maktab ta'limdi pedagogik konfliktlarning tarkibi va ularni bartaraf etish xususiyatlari	99
Исламова Д.Б. Тутинган ота-она ва бола билан ишлашда психологияк мослашув методикалари тавсифи	106
Xanbabayev X.I. Raqamli kompetensiyani rivojlantrishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari	112
Mirzayev A.M. Harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida klaster yondashuv asosida kursantlarni belbog'li kurashga o'rgatish	118
Абдурахимова Да.А. Бұлажак офицерларда ҳарбий ватанпарварлық түйғусини ривожлантиришнинг миллий- маънавий ва ахлоқий асослари	125
Azizova S.A. Kredit tizimi asosida fanlararo integratsiyani rivojlantrish	131
Эшбеков С.Ж. Ёшларни ҳарбий ватанпарварлық рухида тарбиялаш жараёнларини takomillashtirişning самарали шакл, метод ва воситалари	134
Эшбеков С.Ж. Ёшларни ҳарбий ватанпарварлық рухида тарбиялаш тизимини takomillashtirişning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	142
Bozorov Z. Yu. Ta'lim sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb masalasidir	146
Xujaniyozova O.R. Muayyan yoshdagi maktab o'quvchilari bilan samarali ishlashda maktab psixologiyasi faoliyatining ahamiyati	150
Xolmatova S. K. Mustaqil ta'limi tashkil etishda interfaol ta'lim texnologiyalardan foydalansh	157
Xolmatova S.K. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ishlarning ahamiyati	163
Махкамов У.И., Тешакулова Б.Ш. Бұлажак ўқытувчиларда педагогик маҳорат маданиятини ривожлантириш	167



МАКТАВ ТА'ЛИМИДА ТАБИИY FANLARNI INTEGRATSION O'QITISH METODIKASI

Tashpulatova D.M.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Boshlang'ich ta'lim metodikasi”
kafedrasи o'qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: o‘quvchilar, maktab, ta’lim, fanlar, integratsiya, o‘qitish, tabiiy, tushuncha, malaka, rivojlantirish.

Ключевые слова: учащиеся, школа, образование, предметы, интеграция, обучение, естественные, понимание, компетентность, развитие.

Key words: students, school, education, subjects, integration, learning, natural, understanding, competence, development.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida maktab ta’limi mazmunini yangilash va takomillashtirish vazifalari qo‘yilgan[1]. Bu borada maktab ta’limiga O‘zbekiston Respublikasi Prezident va ixtisoslashgan maktablar metodikasini joriy etish asosiy masala sifatida ta’kidlangan. Bu metodikada o‘quv fanlarini integratsion o‘qitish ham muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan bu o‘rinda e’tiboringizni maktab ta’limida *tabiiy fanlarni* integratsion o‘qitish metodikasi tahliliga tortamiz.

Tabiiy fanlarni turkumlashtirish. Maktab ta’limida Kimyo, Biologiya, Fizika kabi tabiiy fanlar o‘qitilmoqda. Shu sababli o‘qitilayotgan tabiiy fanlarni integratsion shaklda o‘qitish uchun ularni aniq turkumlashgan mexanizmlariga asoslanish kutilgan samarani beradi. Bu masalada bizningcha, quyidagicha turkumlashgan shaklda integratsion o‘qitish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) kimyo-biologiya (botanika, zoologiya, anatomiya) turkumi;
- 2) geografiya va ekologiya turkumi;
- 3) fizika va labaratoriya ishlari turkumi.

Maktab ta’limida Kimyo-Biologiya turkumini integratsion o‘qitish ta’lim mazmunini chuqurlashtiradi. Chunki bu fanlar mazmun, maqsad va vazifalar jihatidan uyg‘undir. Shu ma’noda integratsion o‘qitishda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) Kimyo fani o‘quv materiallarida Biologiya fani bo‘yicha misollarni ifodalash;



b) Biologiya fani o‘quv fanlari materiallarida kimyoviy reaksiya kabi mavzularni ifodalash;

v) amaliy mashg‘ulotlarni mazkur fanlar kesimida tashkil etish.

Bunday yondashuv mazkur fanlarni o‘zaro uyg‘unlikda o‘qitish va o‘quvchilarining fanlar asoslarini mantiqiy o‘zlashtirishida muhim o‘rin tutadi. Misol uchun, yuqori sinflarda o‘qtiladigan Biologiya o‘quv fanining Atrofimizdagi olam turkumi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiat, o‘simlik dunyosi va ularni muhofaza qilish bo‘yicha tushunchalari shakllanadi. Bu bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yuqori sinflarda Biologiya fanini o‘zlashtirishga tayyorlashga erishiladi.

Tabiiy fanlarni ichki turkumlashtirgan holda integratsion o‘qitish uchun barcha darsliklar muayyan mualliflar guruhi tomonidan yozilishi taqoza etiladi. Bugungi kunda har bir sinf darsliklari o‘zga mualliflar tomonidan yozilayotganligi tabiiy fanlar o‘quv materiallaridan sinflar kesimida uyg‘unlikning mavjud emasligiga sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, tabiiy fanlar o‘quv materiallarida ma’lumotlarning murakkabligi va ularning murakkab tahlilga egaligi ham ko‘zga tashlanadi. Integratsion o‘qitish metodikasida esa darslikdagi ma’lumotlar tushunarli va oson hamda o‘zaro uyg‘unlikka ega bo‘lishi kerak[2].

Geografiya va Ekologiya turkumi. Maktab ta’limidagi mazkur fanlarni amaliyotdan nazariyaga tamoyiliga asosan o‘qitish dolzarb bo‘lib turibdi. Unga ko‘ra, o‘quvchilar avvalo tabiat va uni muhofaza qilish bo‘yicha amaliy tushunchaga ega bo‘lishi kerak. Shu jihatdan Geografiya va Ekologiya turkumidagi tabiiy fanlarni integratsion o‘qitishda quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

a) imkon qadar dars mashg‘ulotlarini ekskursiya tarzida tashkil qilish;

b) tabiatning o‘zida o‘quvchilarining tajribalarini o‘tkazish;

v) o‘quvchilarini tabiatning aniq holati bilan tanishtirish.

Bu metodikaga asoslanish Geografiya va Ekologiya tabiiy fanlarini integratsion o‘qitish vositasida mazmunini chuqurlashtirishga olib keladi. Chunki ushbu fanlar mavzulari va asoslari bevosita tabiat va fasllar bilan bog‘liqdir. Misol uchun, boshlang‘ich sinflarda o‘qtilayotgan Tabiiy fanlarning geografiya va ekologiyaga oid mavzulari bo‘yicha dars mashg‘ulotlarini tabiatda tashkil qilish o‘quvchilarining tushunchasi, ongi va bilim darajasini chuqurlashtiradi. Masalan, tabiatga yetkazilgan zararni ko‘rsatish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiat muhofazasiga oid motivatsiyani paydo qiladi. Shu ma’noda dars mashg‘ulotlarini tabiiy ravishda va tabiiy ma’lumotlar asosida tashkil qilish mazkur o‘quv fanlarining sifatini kuchaytiradi.

Integratsion o‘qitish metodikasida imkon qadar ko‘rgazmali qurollar vositasida ta’lim berish muhim hisoblanadi. Shu sababli Geografiya va Ekologiya o‘quv



fanlari dars mashg‘ulotlari uchun tabiat va fasllar o‘ziga xos tabiiy ko‘rgazmali qurol sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun mazkur fanlarning o‘qituvchilarini o‘zaro bog‘liqlikdagi o‘quv dasturlariga ega bo‘lishi taqoza etiladi.

Fizika va labaratoriya turkumi. Bugungi kunda mamlakatimiz maktab ta’limida Fizika o‘quv fanini o‘qitish mazmunini yangilash dolzarb bo‘lib turibdi. Chunki bu fan ko‘p hollarda sinfda o‘qitishga mo‘ljallangan o‘quv materiallariga ega. Shu sababli mazkur turkumda integratsion o‘qitishni tashkil qilishda bizningcha, quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) maktab va maktabdan tashqari muassasalarda labaratoriya ishlarini tashkil qilish;

b) labaratoriya mashg‘ulotlari vositasida Fizika va labaratoriya darslarini o‘tish;

v) labaratoriya vositasidagi darslarda ko‘proq o‘quvchilarni tajribaga o‘rgatish.

Bu metodikaga ko‘ra, o‘quvchilar muayyan tajribadan fizik xossalari bo‘yicha bilim olishga o‘tadi. Unda o‘quvchilarning o‘z tajribalari darslar uchun ma‘lumot bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli mamlakatimiz umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida labaratoriylar tashkil qilish va ularni zamonaviy texnika jihozlari bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada ayniqsa yangidan qurilayotgan umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida zamonaviy labaratoriya binolarini barpo etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan 2023 yilda quriladigan

42 ming o‘quvchiga mo‘ljallangan maktablarda ana shu miqdorda labaratoriylar mavjud bo‘ladi. Bu hol fizika va labaratoriya turkumidagi tabiiy fanlarni integratsion o‘qitishga asos bo‘ladi.

E’tibor berilsa, maktab ta’limida tabiiy fanlarni integratsion o‘qitish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, uni maxsus metodika asosida o‘qitish taqoza etiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni integratsion o‘qitish metodikasi bilan qurollantirish dolzarb bo‘lib turibdi. Bundan tashqari, maktab ta’limining isloh etilayotganligi amaliy faoliyatdagи o‘qituvchilarni ham Pedagoglarni yangi metodikaga o‘rgatish markazlari vositasida integratsion o‘qitish metodikasi bilan qurollantirish ham dolzarb hisoblanadi.

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, maktab ta’limida tabiiy fanlarni integratsion o‘qitish bo‘yicha quyidagilarni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1) oliy pedagogik ta’lim muassasalarida tabiiy fanlarni integratsion o‘qitish metodikasini ishlab chiqish;

2) oliy pedagogik ta’lim muassasalariga biriktirilgan maktablarning tabiiy fanlar o‘qituvchilarini shu muassasalarning professor-o‘qituvchilarini bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish;



3) oliy pedagogik ta’lim jarayonida tabiiy fanlar bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarni integratsion o‘qitish metodikasi bilan quollantirish;

4) maktab ta’limida tabiiy fanlarni integratsion o‘qitish bo‘yicha masofaviy ta’lim shakllarini tashkil etish.

Bunday yondashuv maktab ta’limida tabiiy fanlarni o‘qitish mazmunini yangilaydi. Buning natijasida quyidagilarga erishish imkoniyatlari mavjudligini ta’kidlab o‘tish lozim:

- o‘quvchilarning tabiiy fanlarni o‘zlashtirishini yangilash;
- amaliy faoliyatdagi tabiiy fanlar o‘qituvchilarining shu fanlar bo‘yicha olimlari va professor-o‘qituvchilari bilan hamkorligiga erishish;
- maktablar va oliy pedagogik ta’lim muassasalarining amaliy hamkorlik imkoniyatlariga ega bo‘lish;
- integratsion o‘qitish tajribalarini ommalashtirib borish.

Bunday yondashuv maktab ta’limida tabiiy fanlarni integratsion o‘qitishning amaliy samaradorligini beradi.

Pedagog olimlar o‘quv fanlarini integratsion metodika asosida o‘qitishda asosiy e’tiborni amaliy natijalarga qaratadi[3]. Shu sababli integratsion o‘qitish metodikasi amaliy natijalarni berishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi://www.ziyonet.uz.

2. Tashpulatova D. Boshlang‘ich ta’limda klaster yondashuv asosida o‘quv fanlarini integratsion o‘qitish mexanizmlarini takomillashtirish.-Toshkent, 2023

3. Abdullaeva B. Fanlararo aloqadorlikning metodologik asoslari.-Toshkent,2006

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada umumiy o‘rtta ta’lim muassasalari o‘quvchilarida tabiiy fanlarni integratsion o‘qitish metodikalarini shakllantirishda, maktab ta’limida tabiiy fanlarni integratsion o‘qitish metodikasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u amaliy natijalarga yo‘naltirilganligi bilan muhim o‘rin tutishi, o‘quvchilarda yuzaga keladigan muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются вопросы формирования методик интегративного обучения естественным наукам у учащихся общеобразовательных учреждений, что методика интегративного обучения естественным наукам в школьном образовании имеет свои особенности, она занимает важное место с ориентацией на практические результаты, развитие у учащихся умения решать возникающие задачи.

SUMMARY

This article discusses the formation of methods of integrative teaching of natural sciences among students of general education institutions, that the method of integrative teaching of natural sciences in school education has its own characteristics, it occupies an important place with a focus on practical results, the development of students’ ability to solve emerging problems.